


XIX ASR IKKINCHI YARMI XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYANING TASHQI IQTISODIY ALOQALARINING HOLATI

Zokirjanov Mirzohid Shuhrat o'g'li

“Shon-Sharaf” davlat muzeyi kichik ilmiy xodimi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14044277>

Rossiya imperiyasi 1721-yildan 1917-yilning fevral oyigacha mavjud bo'lgan qudratli davlatlardan biri dunyo tarixida o'zining munosib o'rniga ega davlat hisoblangan bo'lib, uning tarkibiga Sharqiy va Shimoliy Yevropa, Shimoliy va Markaziy Osiyo, Kavkaz hududlari kirgan. XIX asrning birinchi yarmi Rossiya tarixida olamshumul voqealarga boy bo'ldi. Ayni shu vaqda Rossiya imperiyasida mamlakat iqtisodiy tizimini tubdan o'zgartirish uchun asosiy shart-sharoit ayni shu davrda qo'yildi. Bu davr mamlakat hayotining barcha jabhalariga o'zgartirishlar kiritdi. Feodal-krepostnoy tizimning inqirozi boshlandi, iqtisodiyotda bir qator burjua elementlari rivojlandi, sanoat inqilobi sodir bo'ldi. Shu bilan bir qatorda ushbu jarayonlarga parallel ravishda xalqaro maydonga Rossiya chiqdi. Yevropa mamlakatlardan, jumladan G'arbiy Yevropa va AQSh mustamlakalarida esa biroz keyinroq boshlangan. Bu vaqtda AQShda yangi bozorlarni o'zlashtirish nuqtayi nazaridan iqtisodiy integratsiya shuningdek qattiq kapitalistik raqobat sharoitlariga moslashish edi. Jamiyat tarixiy taraqqiyotida hamisha iqtisodiy sohaga juda katta e'tibor bilan qaralgan. Chunki mamlakat iqtisodiyoti ijtimoiy, siyosiy va boshqa muammolarni qamrab olgan edi. Davlat iqtisodiyotning rivojlanishi esa mamlakatdagi umumiy turmush darajasini belgilaydi. Iqtisodiy sohaning barcha tarkibiy qismlari holatini o'rganmasdan turib mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini chuqur o'rganib bo'lmaydi. Tashqi savdo mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etgan sohalardan biridir. Bu soha kapitalizmga o'tish, sanoat inqilobining sodir bo'lishida juda katta rol o'ynagan soha hisoblanadi. XIX asr birinchi yarmida Rossiya tashqi savdosi shakllanish va rivojlanish davrini boshidan kechiradi. Imperiyaning tashqi savdo aloqalarida faol savdo balansining saqlanishi, imperiyaga kirib keladigan mahsulotlarga beriladigan bojxona tariflarining aniqlanishi, mamlakat tashqi savdo salohiyatini mustahkamlashning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. XIX asrning birinchi yarmida Rossiya tashqi savdosining rivojlanishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatdi. Ulardan biri tashqi va ichki siyosiy omillardir. Jahon bozori va pirovardida Rossiya tashqi savdosining holati sezilari darajada barqarorligi va beqarorligiga bog'liq edi.



Shubhasiz bu holat Rossiya tashqi iqtisodiy aloqalarining qonunchilik – huquqiy bazasini yaratishga olib keldi. Ayniqsa Yekaterina II(1762-1796-yillar) ning nabirasi podsho Aleksandr I (1801-1825-yillar) davriga kelib 1801-yil 16-mart kuni qonunlarni ishlab chiqish komissiyasiga rahbarlik qilish yani A.A. Bekshayevga topshirildi. Ammo 1801-yilning 5-iyun kunida qabul qilingan imperatorning farmoniga muvofiq komissiya raisi etib graf P.V. Zavodoskiy tayyinlandi- keyinchalik bu komissiya vazifalari toraytirildi, imperator Zavodoskiyga davlat organlarida davlat tilida ish yuritish tartibi bilan shug'ulanishni buyurdi. 1802-yil sentabr oylariga kelib esa komissiya tomonidan qabul qilingan qonunlar Adliya vaziri G.R. Derjavining qo'liga kelib tushgan. Rossiya imperiyasi qonunlari to'plamini ishlab chiqishda imperiya yangi adliya vazirlari yuristlar P.V. Lopuxin(1803-yildan Rossiya imperiyasi adliya vaziri lavozimida ishlagan, N.N. Novosilsev, birinchi kotib G.A. Roznekampflarning xizmatlari beqiyosdir. Aynan shu insonlarning tashabbuslari bilan Rossiya imperiyasi qonunlarining to'liq to'plami yangidan yaratilishiga erishildi. Aleksandr I (1777-1825-yillar)ning amalga oshirgan islohotlari natijasida Rossiyaning iqtisodiyoti yanada rivojlana bordi. Tarixchi olimlar I. Vallshteyn va N.Rojkovlarning fikricha Rossiyada sanoatning haqiqiy rivojlanishi Aleksandr I (1777-1825-yillar) hukmronligi yillarida boshlangan,

1822-yili imperiyada proteksionizm tizimi joriy qilingan va 1850-yillardan buyon saqlanib kelgan. Bu tizim qoidalariga muvofiq Rossiyaga kirib keladigan 1200 turli-tuman tovarlarni yig'ib olinib ulardan poshlinalar olingan. Biroq ayrim tovarlar : shakar,paxta, zig'ir matolari va buyumlari kabi tovarlarni olib kirish amalda taqiqlangan. Bu avvalo yuqori bojxona ta'riflari tufaylidir.


J. Blumning fikricha aynan shu davrda Rossiyada raqobatbardosh shakar-to'qimachilik sanoati taraqqiy etdi. Rossiyaning boshqa davlatlar bilan olib boradigan tashqi iqtisodiy aloqalarida muhim rol o'ynagan sohalardan yana biri bu bojxona ishidir. Rossiyada bojxona tizimi ancha qadimdan mavjud bo'lib kelgan bo'lsada XIX-XX asrlarga kelib bu tizim ancha takomillashtirilib yangi bosqichga ko'tarildi. Yekaterina II, Pavel I larning amalga oshirgan islohotlarida bojxona sohasiga alohida ahamiyat kasb etgan, hattoki "bojxona ta'riflari to'g'risida"gi nizom qabul qilindi. Biroq 1825-yili Aleksandr I hukmronligining oxirgi yillarida bojxona idoralari rahbarlarini qaytadan tayyorlash amaliyoti tiklandi. Rossiya imperiyasida professional bojxona xizmatini saqlab qolish bazasi Sankt Peterburg bojxona boshqarmasi bo'lib qoldi. Bu boshqarma Rossiya



imperiyaqidagi eng yirik bo'xona idorasi edi Yangi qoidalarga binoan bir vaqtning o'zida bo'xona xizmatiga 16 nafar shaxs o'qitilgan, shulardan 4 tasi bo'xona idoralarining direktorlari va ularning o'rinbosarlari (birinchi darajalilar) va qolgan 12 nafari kotiblar, buxgalterlar (ikkinchi darajali talabalar) lavozimiga tayyorlangan. Talabalarni qabul qilish huquqi Moliya vazirligi Tashqi savdo departamenti direktoriga shaxsan berildi. Rossiyada bo'xona xizmatiga ishga kirish jarayonida treningdan o'tgan tinglovchilar haqiqiy xizmatga qabul qilinib 600 rubldan 1000 rublgacha oylik olishganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan. Rossiya imperiyasida bo'xona ishlariga kirishda ikkala razryadda yakuniy imtihonlar o'tkazilar edi. Yakuniy imtihonlar olingan bilimlarni sinovdan o'tkazish bo'lib unda tinglovchilar bo'sh ish o'rinlariga hujjat topshirishda o'zlarining mehnatsevarligi, bo'xona xizmatini yaxshi bilishi bilan farqlanishardi.

XIX asr Rossiya imperiyasi bo'xona xizmatining tizimida o'zgarishlar bo'ldi. Bu avvalo xodimlarning formali kiyim boshini yaratilishi bilan bog'liqdir. Dastaval 1827-yilda rahbarlik lavozimlaridagi shaxslar uchun formali kiyim bosh (avval yoz keyin qish) joriy etilgan. Biroz vaqt o'tgach esa 1849-yili oddiy xizmatchilar (xususan inspektorlar), kiyim kechak bilan ta'minlandi. Bundan tashqari yordamchi bo'linmalar o't o'chirish brigadalari, nogironlar brigadalari xodimlari uchun ham alohida mahsus kiyimlar joriy qilindi.

XIX asrning birinchi yarmida Rossiya imperiyasi iqtisodiyoti dunyoda rivojlangan davlatlardan tobora orqada qola boshladi. Nikolay I (1825-1855) hukmronligining boshida sanoatdagi vaziyat Rossiya imperiyasi tarixida " sanoatning eng achinarli holati" nomi bilan belgilangan. Rossiyada G'arb mamlakatlari bilan bemalol raqobatlasha oladigan sanoat deyarli yo'q edi. Rossiya eksport bo'yicha faqatgina xomashyo yetkazib beradigan mamlakatga aylanib qolgan edi. Boshqa mahsulotlar esa chet eldan sotib olinar edi. XIX asr boshlariga kelib, fabrikalardagi oddiy dehqonlar va krepostnoylarning huquqlari deyarli teng edi. Natijada 1824-yili hukumat tomonidan ishchilarga sessiyalariga qatnashish huquqi berilib, hukumat mulkdorlarining iltimoslari tasdiqlandi. 1835-yilga kelib esa dehqonlarni ozod qilishga ruxsat berilgan edi. 1840-yili esa ommaviy ravishda dehqonlarni tarqatib yuborish ishlari boshlandi. Nikolay I hukmronligining oxiriga kelib mamlakatda vaziyat keskin o'zgardi. Rossiya imperiyasi tarixida texnik jihatdan tartibga solingan raqobatbardosh sanoat shakllana boshladi. Xususan to'qimachilik, shakar sanoati, charm, kiyim kechak, metal buyumlar, yog'och, shisha va boshqa mahsulotlar yetishtirilar edi.



Rossiya tarixi bilan shug'ulanayotgan iqtisodiyot tarixchilarining bergan ma'lumotlariga qaraganda imperiya iqtisodiyotining jadal suratlarda rivojlanishiga Nikolay I (1825-1855-yillar) hukmronligi davrida olib borilgan proteksionistik siyosat turtki bo'lgan. Podsho Nikolay I ning topshirig'iga binoan M.M.Speranskiy rahbarligida Rossiya imperiyasi qonunlari to'plami yangilanib unga 1825-yildan buyon qabul qilingan qonunlar kirdi. Nikolay I (1825-1855-yillar)ning hukmronligidan Aleksandr II (1855-1881-yillar) hukmronligigacha bo'lgan vaqt ichida Rossiya imperiyasi qonunlari to'plami bir necha bor yangilandi. 1825-1830-yillar davomida Rossiya qonunchiligi yanada rivojlanib yangidan taraqqiy etdi. Imperiyada 1830-yillardan qonunlar kodifikatsiya qilina boshladi. Ularda Nikolay I va Aleksandr II larning hukmronliklarida qabul qilingan qonunlar va podsholarning farmonlari kirgan. Rossiya imperiyasining qonunlari ikkinchi to'plami 55 tom dan iboratdir. Rossiya imperiyasida davlat hokimiyati markaziy organlari Senat, Davlat kengashi hamda Vazirlar qo'mitasi hisoblanib ular imperiya hayotiga molik ma'salalarni muhokama qilish bilan shug'ulanganlar. Imperiyaning ichki va tashqi savdo ishlarini boshqarish savdo vazirligi shug'ulangan, bu esa markaziy davlat boshqaruvi organi hisoblangan. 1864-yilda Rossiya Moliya Vazirligining Tashqi savdo departamenti tashkil qilinib u bojxona yig'implari bilan shug'ulangan. Bu department Rossiya hududiga kirib keladigan bojxona poshlinalarini yig'ish, bojxona qonunchiligini buzulishiga qarshi kurashish vazifalarini bajargan. Ma'lumki avvalari Rossiyada savdo ishlari bilan savdo kollegiyasi shug'ulangan. Keyinchalik bu kollegiya Rossiya savdo vazirligiga bo'ysunadigan bo'ldi.

Xullas, XIX-XX asrlarda ham Rossiya agrar davlat bo'lishiga qaramasdan xorijiy bir qator mamlakatlar bilan tashqi savdo aloqalarida bo'lib kelgan. Buning uchun esa Chor Rossiyasida tashqi iqtisodiy aloqalarni olib borishning mustahkam qonunchilik-huquqiy bazasi yaratilganligi muhim omil bo'lib xizmat qildi. Tashqi iqtisodiy aloqalarining boshqarish tizimi taraqqiy etdi. Rossiyaning taraqqiy etishida esa Nikolay I va Aleksandr II davrlarida amalga oshirilgan islohotlar bunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Струмелин С.Г. Очерки экономической истории России М., 1960
2. Рожков Н.В. Русская история в сравнительном освещении Ленинград-Москва., 1926-1928
3. Ермакова М. Хромов О. Столетие промышленности России М., 1913



4. Барк П.Л. Воспоминания последнего министра финансов России 1914-1917-гг М., 2017
5. Назареевский В.В. Царствование Александра II(1855-1881-гг) М., 1910
6. Некрич А.М. История России М., 2007

